

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15005259>

O'RTA OSIYO MADRASALARI VA ULARDA TA'LIM JARAYONI

Boltayeva Poshshajon Rashidovna

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim mudiri.

Boltayev Izzatbek Xurmatbek o'g'li

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim mudiri.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyoda madrasalarning tashkil qilinishi, bu borada olib borilgan ishlar, madrasalarda ta'lif jarayoni va mavjud madrasalar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Narshaxiy, Forjak, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'iloni, Umar Qazviniy, Abdurahmon Jomiy, Mahmud ibn Ahmad Mahbubiy, Ko'kaldosh, Ulug'bek, Zargarlar, Tursunjon, Xiyobon, Govkushon.

CENTRAL ASIAN MADRASAS AND THE EDUCATIONAL PROCESS IN THEM

ABSTRACT

This article provides brief information about the establishment of madrasas in Central Asia, the work carried out in this regard, the educational process in madrasas, and existing madrasas.

Keywords: Narshaxiy, Forjak, Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'iloni, Umar Qazviniy, Abdurahmon Jomiy, Mahmud ibn Ahmad Mahbubiy, Ko'kaldosh, Ulug'bek, Zargarlar, Tursunjon, Xiyobon, Govkushon.

Madrasa arabcha «darasa» («o‘rganmoq») so‘zidan olingen bo‘lib, «o‘rganish joyi» degan ma’noni bildiradi. Islom vujudga kelgan birinchi kunlardanoq masjidlar qurila boshlagan. Lekin madrasalar qurilgan vaqtini aniq aytish qiyin. IX-XIII asrlarda islom diniga e’tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O‘rta Osiyoda tarqalgan. Ayrim olimlar dastlabki madrasa Buxoroda X asrda qurilganligini ta’kidlaydilar. Narshaxiyning yozishicha, 937-yilgi yong‘inda zarar ko‘rgan «Forjak» madrasasi O‘rta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir.

Madrasaga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Talabalar kunduzgi bo‘lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalari toifalariga ajratilgan.

Madrasa o‘quv dasturining umumiyligi jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg‘ulotlar, odatda, sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan.

Madrasalarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari mashg‘ulotlar olib borilgan. Chorshanba, payshanba, juma kunlari ta’til kunlari sanalgan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod namozidan keyinroq) boshlangan. Madrasada ta’lim uch bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi «Aqoid» kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi «Aqoid» kitobini o‘qishdan boshlanib, «Sharhi mulla» kitobini o‘rganguncha bo‘lgan va undan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a’lo bosqich talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab, o‘rtacha 7-12 yil davom etgan.

O‘rta Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblar o‘qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi o‘qitilgan. Arab tili grammatikasidan so‘ng o‘quv kursi ikki bo‘limga: umumta’lim kursi – mushkulot va fiqh kursi – masala bo‘limlariga ajratilgan.

Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini O‘rta Osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturidiyning «Kitob at-tavhid», Burhoniddin Marg‘iloniyning «Al-hidoya fi sharh al-bidoya», Umar Qazviniyning «Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiya», Abdurahmon Jomiyning «Al-favoid ad-diyoiya», Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning «Viqoyat ar-rivoya fi masoil», Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiyning «An-nuqoya» kabi asarlari tashkil etgan.

Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarning mavjudligiga qarab, falakiyat, handasa, tibbiyat, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan.

O‘rta Osiyoning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon, Xiva shaharlari madrasalari ta’lim tizimining bir-biridan farq qilishi bilan ajralib turgan. Quyida biz O‘rta Osiyoning har bir yirik shaharlaridagi madrasalarda ta’lim tizimi qanday bo‘lganligiga e’tibor qaratib o‘tamiz.

XVI asrda yashagan Hasanxoja Nisoriyning ko‘rsatishicha, sayful-ulamo Kamoliddin Ibrohim Shirvoniy «bir necha vaqt shaharlar faxri bo‘lgan Buxoroda dars o‘qitish bilan mashg‘ul bo‘lgan» va uning etuk shogirdlaridan barchasi mavlonolik darajasiga erishganlar. Buxoro madrasalari mana shunday buyuk mudarrislarni etishtirgan ilm o‘choqlaridan hisoblanadi.

XVII asrda yashagan Mahmud ibn Valining quyidagi so‘zlari Buxoroning ilm tarqatuvchi markazi sifatida rolini isbotlaydi. «Olimlarning ko‘pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar», – deb yozgan edi u.

XIX asrning 40-yillari, rus sayyohi N. Xanikovning ko‘rsatishiga ko‘ra, Buxoroda amir ro‘yxatida ko‘rsatilgan 103 ta madrasa bo‘lib, ulardan 60 tasi eng katta madrasa hisoblanar edi. Ularning eng mashhurlari: Ko‘kaldosh, Ulug‘bek, Zargarlar, Tursunjon, Xiyobon, Govkushon madrasalari va boshqalar edi.

Ingliz sayyohi A. Byorns esa shaharda 366 ta katta va kichik madrasalar bor deb ko‘rsatar ekan, madrasalar toliblari orasida Erondan tashqari hamma mamlakatlar kishilarini uchratish mumkin. Ular etti yoki sakkiz yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga bilim zahirasi bilan qaytishlarini qayd etgan edi.

Madrasalar katta vaqf mulkiga ega bo‘lib, undan tushgan foydadan o‘qituvchilarga maosh va talabalarga stipendiya to‘lanar edi. Mudarrislardan biri tushgan foydaning xarajat qilinishini nazorat qilar edi. Har yili madrasada bo‘lib o‘tadigan imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan din xizmatchisi umr bo‘yi beriladigan stipendiya – dahyak olar edi.

XIX asrning o‘rtalarida Buxoroda madrasa talabalari soni 9 mingdan 10 ming nafarga etdi.

Toshkent Qo‘qon xonligining yirik ilmiy ma’rifat markazlaridan biri hisoblangan. Bu shaharda qurilgan madrasalar Movarounnahrdagina emas, balki boshqa Sharq mamlakatlari talabalari uchun ham ilmiy markaz hisoblangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo madrasalari o‘quv dasturi birmuncha isloh etilib, ularda o‘qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingлиз tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida 336, Xiva xonligida 132, Turkiston general-gubernatorligida 348 madrasa bo‘lgan. XX asrning ikkinchi choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va «xurofot o‘choqlari» tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев В. А. Узбек адабиёти тарихи. ИИ китоб (XVII асрдан XX асрнинг иккинчи ярмигача).- Т.: Уқитувчи. 1980
2. M. Turaeva. Milliy ta'lim tarixidan. // Fan va Turmush. №5. 2000.
3. Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
4. Рахимов Р.Р. Традиционное начальное обучение детей у народов Средней Азии (конец XIX начало XX вв). //Сборник музея антропологии и этнографии XVIII. АН СССР. - Л.: Наука. 1989.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. Москва-1958.